

Dekabr
2025-yil



YANGI YILINGIZ muborak boʻlsin!

HURMATLI PROFESSOR- OʻQITUVCHILAR VA AZIZ TALABALAR!

Sizlarni kirib kelayotgan Yangi — 2026 yil bilan Buxoro davlat tibbiyot instituti jamoasi nomidan, shaxsan oʻz nomimdan samimiy muborakbod etaman.

Oʻrta qolayotgan yil institutimiz hayotida yuksak marralar, muhim yutuqlar va quvonchli voqealarga boy boʻldi. Joriy yilda taʼlim, ilm-fan va xalqaro hamkorlik yoʻnalishlarida amalga oshirilgan izchil ishlar oʻz samarasini berdi.

Quvonarli jihati shundaki, professor-oʻqituvchilarimiz ham ilm-fan yoʻnalishida salmoqli yutuqlarga erishib, ilmiy salohiyat va tadqiqot natijalari bilan yuksak marralarni egallamoqdalar. Ustozlarimizning bu boradagi mehnati institutimiz nufuzini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Talabalarimiz esa respublika va xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalari, “Zakovat” intellektual oʻyinlari, shuningdek, teatr studiyalari tanlovlarida faol ishtirok etib, faxrli oʻrinlarni qoʻlga kiritdilar. Bu yutuqlar — bilimga chanqoqlik va ustozlar mehnatining yorqin natijasidir.

Ayniqsa, institut tarixida ilk bor jamoadoshimiz respublika tanlovida birinchi oʻrinni egallab, Oʻzbekiston Respublikasi



Shuhrat TESHAYEV,
Buxoro davlat tibbiyot
instituti rektori

Prezidenti sovgʻasi — BYD rusumli avtomashina bilan taqdirlangani barchamiz uchun katta faxr va gʻururdir.

Shuningdek, kechagina institutimizning Turkiya Respublikasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan fakulteti ilk bitiruvchilariga diplomlar topshirildi. Bu tarixiy voqea institutimizning xalqaro maydondagi nufuzi va taʼlim sifatining yuksalayotganidan dalolatdir.

Poyoniga yetib borayotgan yilni birma-bir sarhisob qilsak, bunday ulkan yutuqlarning bisyorligini koʻrishimiz mumkin.

Yangi yil barchangizga mustahkam salomatlik, yangi zafarlar, ilm-fan va ijod yoʻlida ulkan muvaffaqiyatlar olib kelsin. Institutimiz ravnaqi yoʻlida birgalikda yanada baland choʻqqilarni zabt etaylik. Bayramingiz muborak boʻlsin!



BOTIR ZARIPOV TURKIYANING SOG'LIK BILIMLARI UNIVERSITETI REKTORI KEMALITTIN AYDINNI QABUL QILDI



Qayd etish joizki, 1903-yilda tashkil etilgan Sog'lik bilimlari universiteti Turkiyadagi yagona ixtisoslashgan tibbiyot universiteti, shuningdek, Yevropaning yetakchi ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Uning mamlakat turli hududlarida 16 filiali faoliyat yuritmoqda. Universitet tibbiyot sohasida malakali kadrlar tayyorlashda boy tajribaga ega.

Ta'kidlash lozimki, Buxoro davlat tibbiyot instituti va Sog'lik bilimlari universiteti o'rtasidagi hamkorlik 2019-yildan buyon izchil rivojlanmoqda. Aniqlik, 2019-yilda ikkala davlat sog'liqni saqlash vazirliklari o'rtasida tuzilgan anglashuv memorandumiga asosan, 2019-2020-o'quv yilidan Buxoro davlat tibbiyot instituti huzurida Turkiyaning sog'liq bilimlari universiteti fakulteti va Malakali tibbiy xizmatlar maktabi joriy etilgan edi. Shundan beri iqtidorli talabalar va o'qituvchilarning ilmiy almashinuvi borasida faol ish olib borilmoqda. Keyinchalik Buxoro davlat tibbiyot instituti bazasida Sog'liq bilimlari universitetining Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti hamda hamshiralarni tayyorlash bo'yicha Malakali tibbiy

xizmatlar Oliy maktabini ochish yuzasidan bitimga erishildi. Bu bitimlar har ikki davlat rahbarlari darajasida qo'llab – quvvatlandi.

Bugungi kunda mazkur universitet bilan Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti o'rtasida yo'lga qo'yilgan aloqalar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zaro kelishuvga ko'ra, har yili buxorolik mutaxassislar ushbu universitetda imtiyozli tarzda malaka oshiradi.

Muloqotda tibbiy ta'lim sohasida aloqalarni yanada kengaytirish va rivojlantirish, hamkorlikda ilmiy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Viloyat rahbari Kemalittin Aydin Buxoroga tashrifi bilan qutlab, hamkorlik doirasidagi takliflarni to'la

qo'llab-quvvatlashga tayyorligini ta'kidladi.

O'z navbatida Kemalittin Aydin Sog'lik bilimlari universitetining Buxoro tibbiyoti bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va rivojlantirishdagi alohida sa'y-harakatlari uchun viloyat hokimiga minnatdorlik bildirdi.

Tomonlar yo'nalishlar va talabalar sonining oshib borayotganini inobatga olib, Turkiya tibbiyot fakulteti uchun alohida bino ajratish, bakalavr va magistrantlarning akademik almashinuvini yanada kengaytirish, akademik mobillik, ilmiy yo'nalishlarda o'zaro tajriba almashish, professor-o'qituvchilar va doktorantlar uchun malaka oshirish, turk universitetining filiali bazasidagi shifoxonalarda amaliyot o'tash va qo'shma tadqiqot, jarrohlik amaliyoti loyihalarini amalga oshirish borasida kelishuvlarga erishildi.

Shu bilan birga har ikkala muassasa o'rtasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan istiqbolli loyihalar to'g'risida fikr almashildi.

Shaxlo QODIROVA
Turkiya tibbiyot fakulteti dekani



NAVBATDAGI 4-SON ILMIY KENGASHI YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI

Kuni kecha institutda Ilmiy kengashning navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi. Unda ta'lim jarayonlari sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirish hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yanada samarali tashkil etish kabi muhim masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, ilmiy unvon va daraja olishga erishgan professor-o'qituvchilarga diplomlar tantanali ravishda topshirildi.

Yig'ilishda ko'tarilgan masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinib, kelgusi faoliyat yo'nalishlari belgilab olindi.

“KONSTITUTSIYA BILIMDONLARI” bellashuvi o'tkazildi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33 yilligiga bag'ishlab “Konstitutsiya bilimdonlari” bellashuvi tashkil etildi.

Tadbir Ijtimoiy fanlar kafedra tashabbusi bilan Davolash fakultetining 109-, 112- va 118-guruh talabalari o'rtasida o'tkazildi.

Bellashuv 4 shart asosida bo'lib o'tdi:

- 1 - Tanishtiruv;
- 2 - “Konstitutsiya yoshlar nigohida” mavzusidagi ijodiy chiqish;
- 3 - Aqliy bellashuv;
- 4 - Erkin mavzu bo'yicha bahs-munozara;

Tadbir davomida talabalar huquqiy bilimlarini namoyish etib, erkin fikrlash, tahlil qilish va tengdoshlar bilan bahslashish ko'nikmalarini ko'rsatdilar.

Bellashuv g'oliblari “Konstitutsiya-faxrim” mavzusida bo'lib o'tgan tadbirda tantanali ravishda taqdirlanishdi.

Turkiya fakulteti bitiruvchilariga tantanali DIPLOM TOPSHIRISH MAROSIMI BO'LIB O'TDI



Kuni kecha Buxoro shahridagi Universal sport majmuasida Buxoro davlat tibbiyot instituti – Turkiya fakulteti bitiruvchilari uchun tantanali diplom topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbir qanday yuqori saviyada tashkil

etilganini bitiruvchilar, ustozlar, otanonalar va mehmonlar ko'zida porlagan quvonch va hayajondan sezish qiyin emas edi. Yillar davomida egallangan bilim hamda tajribalar yakuniga yetayotgan ushbu unutilmas daqiqalarda,

bitiruvchilarga kelgusi ishlarida ulkan omad va zafarlar tilandi. Ushbu marosim kelajakka yo'l ochgan muhim kun sifatida yosh shifokorlar xotirasida o'chmas iz qoldirishi, shubhasiz.

**Kuni kecha Pokistonning
Toshkentdagi elchixonasi konsuli Saqib
Ali hamda elchixona xodimi Buxoro
davlat tibbiyot institutiga tashrif buyurdi.**

Buxoro davlat tibbiyot institutida FAXRIY MEHMONLAR!



Tashrif davomida mehmonlar institutdagi zamonaviy sharoitlar, Simulyatsiya markazi, institut klinikasi, moddiy-texnik baza hamda Axborot-resurs markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Talabalar sifatli ta'lim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlarni yuksak baholab, institutning faxriy mehmonlar kitobida o'z ezgu tilaklarini qoldirishdi.

Shuningdek, konsul janobi institutda tahsil olayotgan pokistonlik talabalar bilan samimiy muloqot o'tkazib, ularning murojaat va takliflarini tingladi.

Ma'lumot uchun: Hozirda Buxoro davlat tibbiyot institutida 133 nafar pokistonlik talaba tahsil olmoqdalar.



Kogon shahrida aholi uchun sayyor qabul va bepul tibbiy ko'rik tashkil etildi

Kuni kecha Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi deputati hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti rahbariyati tashabbusi bilan Kogon shahar aholisi uchun navbatdagi sayyor qabul va bepul tibbiy ko'rik tadbiri tashkil etildi.

Mazkur tadbir Kogon shahar oilaviy poliklinikasida o'tkazilib, unda shaharning 300 nafarga yaqin aholisi ishtirok etdi. Fuqarolar sayyor qabul davomida ijtimoiy masalalar, tibbiy xizmat sifati, davolanish jarayonlari hamda sog'liqni saqlash tizimiga oid o'zlarini qiynab kelayotgan muammolar yuzasidan murojaat qilishdi. Har bir murojaat mas'ullar tomonidan alohida ko'rib chiqilib, qonunchilik doirasida tushuntirilib, amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Tadbinning eng muhim jihatlaridan biri — bepul va keng qamrovli tibbiy ko'riklar bo'ldi. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasidan tashrif buyurgan 20 nafardan

ortiq tajribali professor-o'qituvchilar va malakali shifokorlar tomonidan aholi chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Ko'riklar davomida:

- * turli yo'nalishlar bo'yicha sog'liq holati baholandi,
- * zarur hollarda tibbiy muolajalar amalga oshirildi,
- * bemorlarga individual tarzda davolanish, parhez va turmush tarziga oid batafsil tavsiyalar berildi.

Ayrim fuqarolar qo'shimcha tekshiruv va davolanish uchun mutaxassislar nazoratiga olindi.

Mahalliy aholi vakillari bunday sayyor qabullar va bepul tibbiy xizmatlar ularning salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, tashkilotchilarga o'z minnatdorliklarini bildirishdi.

Bu kabi tadbirlar aholining tibbiy madaniyatini oshirish, kasalliklarning oldini olish va fuqarolar bilan ochiq muloqotni kuchaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Manzura YO'LDOSHEVA

Institutda “Ustoz–shogird” tizimi KENGAYTIRILMOQDA



Institutda tarbiya klasteri doirasida ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida rektorning 1-A/688-sonli buyrug’i ishlab chiqildi.

Mazkur buyruq asosida har 15 nafar talaba uchun 1 nafardan professor-o’qituvchi biriktirildi hamda yoshlar tarbiyasi bo’yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Biriktirilgan professor-o’qituvchilarning asosiy vazifalari:

- * talabalar ijtimoiy faolligini oshirish, ularning iqtidori va tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash;

- * yoshlar orasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, yuqumli va ijtimoiy xavfli kasalliklar, ichkilikbozlik, giyohvandlik, tamaki mahsulotlari kabi zararli odatlarga qarshi profilaktika ishlarini olib borish;

- * yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish;



- * talabalarni vatanparvarlik, ma’naviy poklik va intellektual rivojlanish ruhida tarbiyalash;

- * yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish, sabab va shart-sharoitlarni o’z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

- * ularni axloqiy buzqlikka, zo’ravonlik, terrorizm, diniy ekstremizm va boshqa buzg’unchi g’oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash.

Mazkur tizim yoshlarning har tomonlama barkamol, serg’ayrat va mas’uliyatli bo’lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Institut matbuot xizmati

GIYOHVANDLIKKA QARSHI ustuvor yo’nalishlar muhokama qilinmoqda



O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrda PF–207-sonli “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni

ijrosini ta’minlash maqsadida kuni kecha Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida “Millat genofondi va yoshlar salomatligini himoya qilish: giyohvandlikka qarshi ustuvor yo’nalishlar” mavzusida kengaytirilgan yig’ilish o’tkazildi.

Yig’ilishda Narkotiklar va o’qotar qurollarni nazorat qilish agentligi direktori R. Mamatov ishtirok etdi.

Mazkur tadbirida barcha oliy ta’lim muassasalarining birinchi prorektorlari, dekan o’rinbosarlari, tyutorlar, Yoshlar yetakchilari, profilaktika inspektorlari, psixologlar hamda talaba-yoshlar ZOOM platformasi orqali katta majlislar zalida to’plandilar.

Shuningdek, selektor yig’ilishida JIDUning yoshlar bilan ishlash va ma’naviyat ishlari bo’yicha prorektori Zubayda Baxranova, profilaktika inspektori Sherzod Kamolov, fakultetlar dekan muovinnari va tyutorlar o’z ma’ruzalari va fikr-mulohazalari bilan faol ishtirok etdilar.

Ruxshona RAHMATOVA,
talaba

KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

Hamimiz ma'lum bir yoshga kirgandan so'ng Korrupsiya deya atalmish so'zga yoxud harakatga duch kelamiz. Korrupsiyaning sinonim atamaları ham xalq orasida juda mashhur bular: Hadya, yordam puli, sovg'a, xizmat haqqi, e'tibor va hokazo.

Bugun jamiyatda eng ko'p gapiriladigan mavzulardan biri - bu korrupsiya. Hamimiz yaxshi bilamizki, korrupsiya bor joyda adolat yo'q, halollik yo'q, odamlarning ishonchi sinadi. Shu sababli har birimiz bu illatga qarshi turishimiz kerak. Faqat davlat idoralari yoki rahbarlar emas, balki oddiy fuqarolar ham o'z hissasini qo'shishi muhim.

Korrupsiyaning eng katta zarari - odamlarning hayotiga bevosita ta'sir qilishidir. Kimdir tepkini yashirib, pul evaziga ishini bitirsa, halol mehnat qilayotgan boshqa bironing haq-huquqi poymol bo'ladi. Bu esa jamiyatni orqaga



tortadi. Shu bois har birimiz o'zimizdan boshlashimiz kerak: Pora bermaslik, pora olmaslik, adolat talab qilish, huquqini bilish va qoidaga rioya qilish.


Halollik - bu eng katta boylik. Halol ishlagan odamning boshi tik bo'ladi. Ishimizda, hayotimizda shaffoflik bo'lsa, odamlarning bir-biriga ishonchi ortadi. Korrupsiya yo'qolgan joyda rivojlanish bo'ladi, tartib bo'ladi, odamlarning hayoti yengillashadi.

Shuning uchun aytamiz: Biz korrupsiyaga qarshimiz.

Bu shunchaki shior emas - bu o'z hayotimizga, kelajagimizga bo'lgan munosabatdir.

Institut matbuot xizmati

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish mavzuida rasmlar tanlovi o'tkazildi.



Mazkur tanlov yoshlarning korrupsiyaga nisbatan munosabatini shakllantirish, ularni halollik, adolat va qonuniylik tamoyillariga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etildi. Tadbirida institut professor-o'qituvchilari, talaba-yoshlar hamda bir qator mas'ul xodimlar ishtirok etishdi.

Tadbirni Yoshlar bilan ishlash bo'limi ma'naviyat ishlari bo'yicha birinchi prorektor Zubayda Bahranova ochib berdi. U o'z nutqida korrupsiyaga qarshi kurashish faqat tashkilotlar emas, balki jamiyatning har bir a'zosi zimmasidagi mas'uliyat ekanini ta'kidladi. Shuningdek, talabalar orasida halollik tamoyillarini keng targ'ib etish, ochiqlik va shaffoflik madaniyatini mustahkamlash muhimligini aytib o'tdi.

Shundan so'ng, Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompaniyalar nazorat bo'limi boshlig'i Xurshid Fayziyev so'zga chiqib, korrupsiyaning ijtimoiy hayot va ta'lim tizimiga salbiy

ta'sirlari, uni bartaraf etishning zamonaviy mexanizmlari haqida fikr-mulohazalarini bildirdi. U talabalarni faollikka, tashabbus ko'rsatishga va korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qat'iy "yo'q" deyishga chorladi.

Tanlov doirasida talabalar korrupsiyaga qarshi kurash mavzusini o'ziga xos ijodiy yondashuvda tasvirlab, rang-barang asarlar yaratdilar. Ularning ishlari hay'at a'zolari tomonidan baholanib, eng yaxshi ijod namunalari aniqlandi.

Tanlov yakunida g'olib va faol ishtirokchi talabalar institut tomonidan taqdirlanib, ularga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Ushbu tadbir BuxDTIda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning yana bir muhim qismi sifatida, talabalar ongida halollik va poklik qadriyatlarini mustahkamlashda ayni muddao bo'ldi.

SHERMUHAMMAD TURSUNOV

«O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a‘lochisi»

Sog‘liqni saqlash tizimi xodimlarining mas‘uliyatli va murakkab mehnatini moddiy va manaviy rag‘batlantirish, ularning mehnat faoliyatini takomillashtirish, insonning sog‘lig‘i va hayotiga befarq bo‘lmagan tibbiyot xodimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hukumatimiz diqqat markazidagi ustuvor vazifalaridan biridir.

O‘z hayotini, bor salohiyatini oliyjanob kasbiga bag‘ishlagan, ayniqsa, shifokorlik kasbi bilan pedagoglik mahoratini ham samarali uyg‘unlashtira olgan insonlarni har qancha e‘tirof etsak arziydi.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasi bosh shifokori - davolash ishlari bo‘yicha prorektor, tibbiyot fanlari doktori Shermuhammad Tursunovning "O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash a‘lochisi" ko‘krak nishoni bilan taqdirlanishi yuqoridagi so‘zimizning yana bir karra isbotidir.

Har bir sohaning yetakchisi, o‘z ishinig ustasi bo‘lgani kabi Shermuhammad Tursunov ham sog‘liqni saqlash tizimida o‘z o‘rniga ega - yetuk, malakali kadr hamda salohiyatli ustozlardan birdir.

Uning yosh bo‘lishiga qaramay kuchli bilimi va ish faoliyatidagi tajribasini har qancha o‘rgansak, yoshlarga maktab qilib o‘rgatsak arziydi.

Shifokorlarning obro‘-e‘tibori va ijtimoiy ahamiyatini oshirish maqsadida ta‘sis etilgan «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a‘lochisi» ko‘krak nishoni Shermuhammad Tursunov kabi sohada jonbozlik bilan mehnat qilayotgan ko‘plab xodimlarga chinakam motivatsiya bo‘lishi, shubhasiz.

Shu o‘rinda biz ham Shermuhammad Tursunovni «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a‘lochisi» ko‘krak nishoni bilan samimiy muborakbod etib, kelgusi ishlarida ulkan zafarlar tilaymiz!



FERUZA TOIROVA - “Islahotlar bilimdoni” Respublika ko‘rik-tanlovi sovrindori



“Islahotlar bilimdoni” Respublika ko‘rik-tanlovinig final bosqichi yuqori saviyada yakunlandi. Tanlovda ishtirokchilarning taqdimoti, notiqlik mahorati, yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar mohiyatini izchil va mantiqiy asoslab berish qobiliyati, jarayonga bo‘lgan daxldorlik tuyg‘usi hamda hakamlar hay‘ati savollariga javob berish darajasi asosiy mezon sifatida baholandi.

Har bir nominatsiya bo‘yicha taqdimotlar yakunlangach, hakamlar hay‘ati tomonidan yakuniy natijalar e‘lon qilindi. Tanlovning saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan barcha ishtirokchilarga vazirlik tomonidan tashakkurnomalar topshirildi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, Buxoro davlat tibbiyot instituti Ma‘naviyat-ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i Toirova Feruza Qobilovna faxrli 2-o‘rinni egalladi va BHMning 40 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Feruza Qobilovnani ushbu yuksak natija bilan tabriklaymiz! Bu yutuq institut jamoasining ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi fidokorona mehnati va intilishlarining yorqin ifodasidir.



Buxoro davlat tibbiyot instituti tyutori Saida Xodjayeva "Islohotlar bilimdoni" Respublika ko'rik-tanlovida "Eng yaxshi tyutor" nominatsiyasi bo'yicha 3-o'rinni egalladi.

Institutning eng yaxshi tyutorlaridan biri TAQDIRLANDI

Tanlovda ishtirokchilarning taqdimot sifati, notiqlik mahorati, islohotlar mohiyatini chuqur anglab, ularni izchil va mantiqiy asoslab bera olishi, shuningdek, jarayonga daxldorlik ruhini namoyon etishi asosiy mezon bo'ldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Saida Xodjayeva 35 BHM miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Bu yutuq — institutimizda yoshlar bilan ishlash, ularni qo'llab-quvvatlash va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetuk bo'lib shakllanishiga xizmat qilayotgan fidokorona mehnatning samarasidir.

Biz Saida Xodjayeva bilan faxrlanamiz va uning kelgusi ishlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LOH QILADI:

- ✓ **Professor lavozimiga talabgorlar**
- ✓ Otorinolarinologiya kafedrasini mudiri – 1 o'rin
- ✓ **Dotsent lavozimiga talabgorlar**
- ✓ Nefrologiya, gemodializ, gematologiya va klinik laborator diagnostika kafedrasini – 1 o'rin
- ✓ Oftalmologiya kafedrasini – 1 o'rin
- ✓ Travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrasini – 2 o'rin
- ✓ Klinik farmakologiya kafedrasini – 1 o'rin
- ✓ Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasini – 1 o'rin
- ✓ Professor lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori (DSc) ilmiy darajasi hamda dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.
- ✓ Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.
- ✓ Katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent) lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi ilmiy darajasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr diplomli mutaxassislar) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

MANZIL: Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy, BuxDTI Kengashi kotibasi.



MUASSIS:

Abu Ali ibn Sino
nomidagi
BUXORO DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI

Muharrir:
Behzod ADIZOV

Mas'ul kotib:
**Umidjon
HAKIMOV**

Elektron manzil:
bsmiuz@umail.uz

**TAHRIRIYAT
MANZILI:**
705018.

Buxoro shahri,
G'ijduvon ko'chasi 23-uy.
Telefon: 223-40-45

Sahifalovchi:
**Kamola
SULAYMONOVA**

Gazeta viloyat matbuot va axborot
boshqarmasi tomonidan 2007 yil 16 yanvarda
27-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan.

Guvohnoma raqami: 05-027

Gazeta viloyat bosmaxonasida
500 nusxada chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:
22.12.2025 yil. soat 16:30
Buyurtma 1478